TALABALARNING HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANIDAN INTELLEKTUAL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xalmuradov Tolib Nafasovich
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent davlat agrar universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.14604867

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning o‘quv jarayonida fanga qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqil ravishda yangi bilim olish va faolligini ta’minlovchi intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

mantiqiy fikrlash, intellektual ko‘nikma, aqliy qobiliyat, tafakkur, bilim, metod, innovatsiya, ko‘nikma, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, solishtirish, asosiysini ajratish.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о повышении интереса студентов к науке в ходе образовательного процесса, развитии интеллектуальных умений, обеспечивающих самостоятельное приобретение ими новых знаний и активности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Логическое мышление, интеллектуальное умение, умственные способности, мышление, знание, метод, новаторство, умение, анализ, синтез, сравнение, обобщение, сравнение, выделение главного.

ABSTRACT

The article provides information about increasing students' interest in science during the educational process, the development of intellectual skills that ensure their independent acquisition of new knowledge and activity.

KEY WORDS

Logical thinking, intellectual skill, mental abilities, thinking, knowledge, method, innovation, skill, analysis, synthesis, comparison, generalization,

comparison, highlighting the main thing.

KIRISH

Mamlakatimizning bugungi kundagi shiddat bilan odimlayotgan ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda intellektual-axborot sivilizatsiyasining paydo bo‘lish bosqichida mutaxassislarning kasbiy fazilatlarini shakllantirishga yangicha yondashuvlar va shunga mos, intellektual salohiyatli yoshlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Chunki intellektual salohiyat talabani ijodkorlik, zamonaviy ishlab chiqarishning texnikaviy asoslarini mukammal bilish, ixtisoslikni tez va har tomonlama chuqur egallashga yordam berishdan tashqari ularni kasbiy mahoratini oshiradi va zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi bo‘lgan raqobatbardosh, sifatli mutaxassislar tayyorlashga erishiladi.

Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida yuqori malakali *raqobatbardosh* kadrlar tayyorlash tizimini shaklan va mazmunan isloh qilish, uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakl va metodlari samaradorligini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, shu jumladan, agromuhandislik kadrlarini tayyorlash bilan shug‘ullanayotgan oliy o‘quv yurti talabalarining kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi, kasbiy yuksalishi va barkamol inson bo‘lib yetishishida texnikaviy ijodkorlikka eltuvchi intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi, shubhasiz, tadqiq etishni talab etadigan muammolardan biriga aylandi.

Talabalarning o‘quv jarayonida fanga qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqil ravishda bilim olish va faolligini ta’minlovchi intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Talabada intellektual ko‘nikmalarining rivojlanishi o‘quv jarayonida uni izlanishga va yangi bilim olishga undaydi. Bunda shaxs fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda talaba o‘qituvchi bilan birgalikda faol izlanishda bo‘ladi [1].

Tadqiqot uslubiyoti. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazgan olimlarimizning ta’kidlashicha, inson o‘z ustida ishlamasa, bilimini yildan yilga boyitib bormasa, maktab, texnikum yoki boshqa o‘quv yurtida olgan bilimining 10% ni bir yil mobaynida yo‘qotar ekan [1]. Bu holat davom etaversa, o‘n yilda nima bo‘lishini bir tasavvur etib ko‘ring. Shuning uchun ham umumiy-o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga talabalarda tafakkurni shakllantirish ko‘nikmalari, ya’ni, intellektual ko‘nikmalarni ham rivojlantirish taqozo etadi [2].

Shu maqsadda psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil etib, intellektual ko‘nikmalarning mazmun va mohiyatiga nazar tashlaymiz.

O‘quvchilar va talabalarda intellektual qobiliyatlarni shakllantirishni A.I.Gazizova, M.A.Kosova, N.A.Loshkareva, T.A.Solovyova, V.V.Tyagunenko, G.N.Shornikova, P.P.Blonskiy, N.D.Levitov, N.A.Menchinskaya, Ye.N.Kabanova-Meller, M.I.Maxmutov, I.S.Yakimanskaya, A.V.Petrovskiy, V.A.Mileryan, S.P.Rubinshteyn, A.V.Usova, G.I.Shukina va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq tadqiqotning aksariyat qismi o‘rta maktab materiallariga asoslangan holda olib borilgan, oliy ta’lim dargohlarida mutaxassislarning intellektual salohiyatini shakllantirish bo‘yicha ishlar yetarli emas.

Yetarli darajada intellektual ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan talabalar o‘quv materialini qiyin o‘zlashtiradi va fanga qiziqishi susayadi.

Intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirish nazariyasi muammoli o‘qitish nazariyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Uning avtorlaridan biri M.I.Maxmutov muammoli o‘qitish mazmunini ochib, “unda tizimli va qidiruvchanlik qobiliyati” shakllanishini ko‘rsatadi. U muammoli ta’limni rivojlantiruvchi ta’lim tizimining zamonaviy yetaklovchi elementi deb hisoblaydi [5].

I.S.Yakimanskaya muammoli holatni tafakkur jarayonlarini yuzaga keltiruvchi, bilim olishga intilishni talab etuvchi hamda olingan bilimlarni yangi va nostandart sharoitda qo‘llashni taqozo etuvchi asosiy holat deb ta’kidlagan. Avtorning fikricha, muammoli o‘qitish o‘quvchini fikrlashga undaydi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yuksaltiradi [10].

Pedagog va psixolog olimlar ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, darslarda muammoli holatlarni muntazam joriy etish, o‘quvchilar intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirishda spesifik rolni o‘ynaydi. Intellektual ko‘nikmalarning mohiyatini to‘laroq anglash uchun uning mazmuniga e’tiborni qaratamiz.

T.I.Shamova intellektual ko‘nikmalarni ta’lim olishni o‘rganish yo‘l-yo‘rig‘i deb atab, umumiy va maxsus ko‘nikmalarga ham to‘xtalib o‘tgan [9].

I.Kulibaba intellektual ko‘nikmalarni o‘quv qobiliyatining yadrosi deb atagan [3].

“Intellekt” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “intellect” – fahmlash, anglash, tushunish, payqash degan ma’noni anglatadi.

Intellektual ko‘nikma tushunchasi ko‘p yillar mobaynida S.A.Rubinshteyn boshchiligidagi psixologlar hamda mashhur xorijlik psixologlar B.S.Blum, D.Xamblin tomonidan takomillashtirildi va aniqlashtirildi.

Intellektual ko‘nikmalarni maktab talablariga moslab sayqallash N.A.Menchinskaya va uning ilmiy xodimlariga taalluqlidir. Ular intellektual ko‘nikmani tafakkur (fikrlash) jarayonini amalga oshirish ko‘nikmasi deb atashdi.

Ya’ni analiz va sintez, umumlashtirish va darajalash, mavhumlashtirish va konkretlashtirish, taqqoslash, sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatish kabi aqliy jarayonlarini amalga oshirishdir [6].

Intellektual ko‘nikmalarning bir xilga keltirishning aniq va to‘liq tasnifi deyarli yo‘q. Qoida bo‘yicha intellektual ko‘nikma psixologiya va pedagogikada quyidagicha terminlarda uchrab turadi: “fikrlash qobiliyati faoliyati usullari”, “tafakkur operatsiyalari”, “aqliy faoliyat usullari”, “o‘qish ko‘nikmasi”, “umummantiq ko‘nikmalar”, “o‘qish qobiliyati ko‘nikmasi”, “umumiy o‘qish ko‘nikmasi”, “umumlashgan ko‘nikma”, “tafakkurning mantiqiy usullari” va hokazo.

Biz intellektual ko‘nikmani “aqliy qobiliyatni rivojlantirish usuli” yoki “tafakkurni rivojlantirish usuli” deb ataymiz.

Pedagogikada va psixologiyada umumlashganlik darajasiga qarab, intellektual ko‘nikma umumiy, ya’ni bilimga intilish faoliyatining har xil turida qo‘llaniladigan va xususiy, u yoki bu o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadigan turlariga bo‘linadi.

Ye.A.Mileryan intellektual ko‘nikmalarni o‘quv faoliyati ko‘nikmasi tizimiga kiritgan [7].

T.I.Shamova intellektual ko‘nikmalar sifatida o‘quvchilar tomonidan egallagan tafakkur jarayonlari: analiz, sintez, taqqoslash, umulashtirish, solishtirish jarayonlarini amalga oshirish va tafakkur mustaqilligigida deb biladi. Olima intellektual ko‘nikmalarni rivojlanganlik darajasini “asosiysini ajrata bilish” ko‘nikmasi rivojlanganlik darajasi bilan belgilaydi [9].

Mashhur didakt I.Ya.Lerner o‘quvchilarga o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan asosiy tafakkur jarayonlariga quyidagilarni kiritdi: analiz, sintez, abstraksiya, umumlashtirish. Bu jarayonlar ichida eng asosiysi sifatida analiz va sintezlarni ajratib ko‘rsatadi [4].

Intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirish muammosi xorij pedagogikasida ham dolzarbdir. Ingliz pedagogi D.Xamblinning fikricha, ko‘pchilik o‘quvchilar, ayniqsa, bitiruvchi sinf o‘quvchilari ba’zi bir intellektual ko‘nikmalarga ega emas, masalan, matn mazmunini aytib berish, o‘qiganlar asosida yangi fikrlarni bayon etish, ikkinchi darajali va asosiysini ajratish, umumlashtirish va h.k. Tadqiqotchi buning sababini o‘quvchilarda mexanik yodlash ustuvorligi, o‘ylamasligi, buning oqibatida esa tez charchab qolish mumkinligini ko‘rsatadi [8].

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda amerikalik mashhur pedagog B.S.Blum “O‘qitish maqsadining taksonomiyasi” kitobida o‘quvchilar bilimini oshirishda intellektual ko‘nikmalarning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tdi va asosiy intellektual ko‘nikmalar sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Tushuntirish – bu shunday ko‘nikmaki, o‘quvchi qo‘shimcha tushuntirishlarsiz o‘quv materialini o‘zlashtiradi.

2. Qo‘llash – shunday ko‘nikmaki, bunda abstrakt bilim va tushunchalar konkret sharoitda qo‘llaniladi.

3. Analiz – ma’lumotlarni, uni tashkil etuvchi elementlarga ajratib o‘rganish ko‘nikmasi.

4. Sintez – qismlarga ajratilgan ma’lumotlarni yig‘ib o‘rganish ko‘nikmasi.

5. Baholash – bu ma’lumotlarni baholash ko‘nikmasidir [11].

Natijalar. Bizning tadqiqotimiz uchun B.S.Blumning ishlari katta ahamiyat kasb etadi, sababi u intellektual ko‘nikmalarni atroflicha tahlil qilgan. Biz intellektual ko‘nikmani rivojlantirish deb, talabalar tomonidan egallangan aqliy harakat jarayonini tushunamiz. Bu jarayon hayot faoliyati xavfsizligi asoslari darslarida sifatli kadr tayyorlash uchun zaruriy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari kasbiy ta’lim bakalavriati bitiruvchisi fundamental ilmiy bazaga, ilmiy yaratuvchanlikka, tegishli sohalarda, shu jumladan, hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari va ilm-fan yutuqlarini mukammal bilishlari bilan bir qatorda, ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy qilishlari hamda ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari hozirgi kunning talabidir.

Zamonaviy texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi har bir fuqarodan hayot faoliyatida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish qoidalariga amal qilishni taqozo etadi. Bu esa insonning tafakkur qobiliyatlarini safarbar etishga olib keladi. Sababi mehnat faoliyatining asosiy qismini intellektual yechimlar jarayoni tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida, biz muhandis-pedagoglardan ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda talabalarda intellektual qobiliyatni shakllantirishni taqazo etadi.

Talabalarning intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo‘lsak, uning tashkil etuvchi elementlari quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Bilimlar. Barcha tayanch tushuncha, ibora, asos, qoida, xususiyat va boshqa materiallarni eslab qolish va so‘zlab berish.

2. Darsning tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishish. Talabalarda ongli intizom va yaxshi xulq, ta’lim olishga ijobiy yondashish, hayot faoliyati xavfsizligi faniga qiziqish va texnika muhofazasiga ongli munosabatda bo‘lish, halollik, axloqiy poklik, vatanga sadoqat fazilatlari shakllanganligi. Talaba tayanch iboralarni aytib bera turib, aniq qoida, tushuncha, asos va boshqalarni biladi.

3. Tushunish. Materialni o‘zlashtirish darajasi va uni o‘zgartirib, sharhlab berish qobiliyati. Talaba qoida va asoslarni tushunadi hamda mavjud bilimlarga asoslanib, kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda hodisalarga taxminiy ta’riflar beradi.

4. Qo‘llash. Talaba oldingi o‘zlashtirgan bilimlarini nafaqat standart sharoitlarda, balki yangi vaziyatlarda ham to‘g‘ri qo‘llay oladi.

5. Tahlil. Talaba, faoliyat xavfsizligi elementlari, xossalari, bog‘lanishlari va munosabatlarini ajratib olib, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni belgilaydi, mantiqiy fikrlashdagi anglashilmovchiliklarni ko‘ra biladi, sabab hamda oqibat orasidagi farqni ko‘rsatadi, ularning muhimligini baholaydi.

6. Sintez. Tahlil qilish natijasida ajratilgan komponentlarni o‘rganib, uni birlashtirish, ya’ni qismlarni butunga qo‘shish, joy-joyiga qo‘yishni bilish.

7. Taqqoslash. Bir nechta obyekt yoki hodisalarni bir-biri bilan solishtirib ko‘rib, ularning umumiy va farqlanuvchi tomonlarini ajratib ko‘rsatishni bilish.

8. Baholash. O‘qituvchi tomonidan berilgan materialdagi bilim darajasi va sifatini mezonlar asosida baholashni bilish.

Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir navbatdagi bilish qobiliyati darajasi o‘zining shakllanishida oldingi darajaning mukammal o‘zlashtirilishini talab etadi va natijada, talabaning mustaqil bilim olish va intellektual qobiliyati rivojlanadi. Albatta, bunga samarali darslar vositasida erishiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan o‘qitishning ilg‘or innovatsion texnologiyalarini va faol o‘qitish metodlarini tanlash hamda o‘quv jarayonlariga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Metod (usul) – yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “metodos” – biror narsaga yo‘l, yo‘riq ma’nosini anglatadi. Metod deganda, ta’limda tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarga kafolatli erishish, masalalarni hal qilish yo‘llari, usullari tushuniladi. Ta’lim berish usuli yuqorida belgilangan ta’lim berish maqsadlariga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tartibli hamda tizimli tashkil etish yo‘lidir. Usullarni tanlashning asosiy qoidasi va talabi shundan iboratki, u ta’lim berish maqsadlariga mos kelishi hamda yaxshi natija beradigan, faqat bittasini qo‘llashni taqozo etadi. Usul samaradorligining asosiy mezonlari sifatida belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi, tejamkorligi, soddalligi va osonligi hamda eng yaxshi natijalarga erishishning yuqori ishonchliligini ta’minlay olishi kerak.

Kasbiy ta’limda o‘qitish metodlari bir nechta guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi. Shulardan III guruhga kiruvchi ta’lim berishning faol metodlari tasnifi talabalarda intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu guruhga klaster, muammoli vaziyat, baliq skeleti, yelpig‘ich, suhbat, bahs-munozara, aqliy hujum, didaktik o‘yin, insert, pinbord va boshqa ilg‘or ta’lim usullari kiradi.

Bunda o‘qituvchi faqat bilimning bir qismini ma’lum qiladi, talabalarni mustaqil bilim olish va uni izlab topish faoliyatini bajarishga yo‘naltiradi, turli-tuman muammoli vaziyatlarda ta’lim jarayonini tashkillashtiradi.

Talabalar o‘qituvchining kuzatuvi ostida mustaqil ravishda taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, xulosa qiladilar, baholaydilar va tahlil qiladilar, muammoli holat va vaziyatlarni hal etadilar hamda nostandart berilgan texnik, texnologik, iqtisodiy topshiriqlarni yechadilar, murakkablashtirilgan sharoitdagi amaliy harakatlarni ongli ravishda bajaradilar.

Oliy ta’limning muhandis tayyorlovchi taьlim yo‘nalishlarida hayot faoliyati xavfsizligi fanidan dars samaradorligini oshirish tushunchasi uy vazifalarini bajarib kelgan o‘quvchilar soni, ularning dars jarayonidagi xulq-atvorlari va o‘zini tuta bilishligi, darsda o‘qitishning texnik vositalari va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish va boshqa didaktik talablarni to‘laqonli bajarilishi bilan belgilanmaydi. Aslida, ta’lim samaradorligi juda keng qamrovli va serqirrali uslubiy jarayondir.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirish o‘quv mashg‘ulotlarida ilg‘or innovatsion va zamonaviy axborot texnologiyalari hamda faol ta’lim metodlaridan foydalanish hisobiga erishiladi.

Bu jarayonda o‘quvchi mustaqil bilim olishga harakat qiladi va uning izlanuvchanligi, tadqiqotchiligi oshadi hamda o‘zlashtirish qobiliyati, ya’ni intellektual ko‘nikmasi rivojlanadi. Bunda talabaning faoliyati reproduktiv tarzda emas, balki ijodiy, tahliliy va mahsulli bo‘ladi.

Ta’lim samaradorligi nafaqat qisqa vaqt ichida ko‘proq va chuqurroq bilim berish, balki o‘quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, asosiysini ajratish, turkumlash, sintez kabi intellektual ko‘nikmalarining ma’lum bir miqdorda rivojlanganligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy ta’lim bosqichida hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida e’tirof etilayotgan innovatsion texnologiyalar xususidagi ba’zi mulohazalar ustida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

“Innovatsiya” (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya – bu avval noma’lum bo‘lgan, uchramagan pedagogik jarayonni ifodalab, uni dars jarayonida qo‘llash o‘qituvchining kasbiy mahorati, ruhiy holati va yangilikni kirita bilish qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda “Klaster”, “Muammoli vaziyat”, “Baliq skeleti”, “Yelpig‘ich”, “Didaktik o‘yin” kabi innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish jarayoni quyidagi ketma-ket harakatlardan iborat:

- loyihalashtirish;

- amalga oshirish;
- tahlil va baholash.

Ta’limda texnologiya konkret pedagogik o‘ylanmaga ko‘ra ishlab chiqiladi, uning asosida esa, muallifning ma’lum bir uslubiy, falsafiy pozitsiyasi yotadi. Pedagogik o‘ylanma – ta’lim texnologiyasini konseptual asoslarini hamda uni baholash mezonlari va mexanizmlarini shakllantirishdir.

Ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish paytida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini amalga oshirish zarur. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari, mohiyati bo‘yicha, ta’lim jarayonining barcha qatnashchilarini to‘laqonli rivojlanishini nazarda tutadi. Bu esa nafaqat ta’lim oluvchini umumiy intellektual rivojlanish darajasini va xususan, uni ushbu predmet bo‘yicha tayyorgarligini, uni qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishga differensiyalashgan yondashuv, balki ta’lim oluvchining psixologik, kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hamda qobiliyatlarini hisobga olish hamdir.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir.

Quyida hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda samarali hisoblangan ayrim innovatsion ta’lim texnologiyalarini keltirib o‘tmoqchimiz.

“Klaster” metodi

Klaster metodi – pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar yuzasidan erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

“Klaster” metodini o‘tkazish bosqichlari.

O‘qituvchi: - Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;


1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizni sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay ularni shunchaki yozib boring.

2. Yozuvingizni imlo xatosi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

3. Berilgan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biron bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsani rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunga qadar davom ettiring;

4. Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

“Ёнғин хавфсизлиги чоралари” мавзусига кластер



“Yong‘in xavfsizligi choralari” mavzusini o‘qitishda “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirish

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi o‘quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. O‘quvchilar qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishi kerak, chunki muammoni yechimini topa olmasa, o‘quvchilarning qiziqishlari so‘nishi va bolalar o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishi mumkin.

Dars jarayonida ushbu metoddan foydalanganda talabalar mustaqil fikr yurtishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga, uning yechimini topishga o‘rganadilar.

Metodning mashg‘ulotga tatbiq etilishi:

1. Mavzuga oid muammoli savol o‘rtaga tashlanadi.

2. Muammoli savol bo‘yicha javoblarni maxsus jadvalda aks ettirilishi topshiriladi.

3. To‘ldirilgan jadval asosida muammoni hal etilishi qay darajada to‘g‘ri ekanligi bahs-munozara orqali aniqlanadi.

Vaziyatdagi muammolar	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari turi	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

1-muammo: Binoda yong‘in kelib chiqishi	Binolarni loyihalashda, qurishda, foydalanishda yoki nazorat qilishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar.	Yong‘in sodir bo‘lganda himoya vositalaridan foydalanish, yong‘in o‘chirish komandalari yetib kelgunga qadar birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilish va ishchi-xodimlarni evakuatsiya qilish.
2-muammo: Yong‘in natijasida binoning ichidagi odamlarning qolib ketishi	Binodagi chiqish yo‘llarining turli buyumlar bilan to‘sib qo‘yilishi yoki binoda odamlarning evakuatsiya chiqish yo‘llarining mavjud emasligi.	Binodan odamlarni qutqarish uchun zudlik bilan olov shiddatini pasaytirib chiqish yo‘llarini ochish yoki tashqi tomondan kranlar yordamida odamlarni qutqarish.
3-muammo: Avtotransport avariyalari natijasida yong‘in kelib chiqishi	Avtomobil yo‘li notekisligi, transport vositasining nosozligi yoki yo‘l qoidasining buzilishi.	Yong‘inni birlamchi boshlang‘ich fazasida kislorod kelishini to‘sish, iloji bo‘lmaganda odamlarni xavfsiz joyga ko‘chirish.

“Baliq skeleti” metodi

“Baliq skeleti” metodi – bir qator iqtisodiy muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Talabalarda tizimli fikrlash, muammo yechimlarini umumiy tuzilmaga keltirish, muammoni tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Dastlab chizmani tuzish qoidasi bilan tanishtiriladi. Talabalar har biri alohida yoki kichik guruhlarda baliqning yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalab, pastda ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillarni topib yozadilar.



“Yelpig‘ich” metodi

Mazkur metod talabalarni biror mavzuning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlarini belgilashni o‘rganadi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

“Ёнғин хавфсизлиги чоралари” мавзусини ўқитишда “Елпиғич” методи

Yong‘inlarda aholini himoya qilish usullari			
Shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash		**Evakuasiya qilish**	
Afzalligi	*Kamchiligi*	*Afzalligi*	*Kamchiligi*
- tezda amalga oshirilishi; - uzoq muddat foydalanishi; - aholi tomonidan tez qabul qilish imkoniyati;	- ko‘p xarajat talab etishi; - maxsus joylarda saqlash zarurligi;	- tezda ko‘plab aholini qamrab olinishi; - talofat ko‘rish ehtimolining kamligi;	- maxsus joylarni talab etilishi; - doimiy ravishda kapital mablag‘ talab etishi
Xulosa: yuzadagi yong‘in ko‘lami va jadalligiga qarab himoya qilish usullari tanlanadi.			

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi davrda taraqqiy etayotgan jamiyatning har bir a’zosining kasbiy faoliyatida uning intellektual fikrlashi va murakkab qurilmalardan samarali foydalanishi darajasi borgan sari yuksalib bormoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, birinchi kursidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi intellektual qobiliyatni rivojlantirish – kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi sanaladi. Bu davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atutov P.R. Politexnicheskoye obrazovaniye v sisteme sredstv povыsheniya funksionalnoy gramotnosti uchaщixsya //Politexnicheskoye obrazovaniye i trudovaya podgotovka v usloviyax integrasii nauki i proizvodstva.: -Tashkent, 1991. – st.1-2.
2. Kabanova-Meller Ye.N. Formirovaniye priyemov umstvennoy deyatelnosti i umstvennoye razvitiye uchaщixsya. –M.: Prosveщyeniye, 1968. -288 st.
3. Kulibaba I.I. i dr. O razrabotke trebovaniy k znaniyam, umeniyam i navыkam uchaщixsya: K metodike izucheniya proverochno-osenochnoy deyatelnosti uchitelya //Voprosы organizasii i metodov issledovaniya znaniy, umeniy i

navыkov uchaщixsya. –M., 1973. –st.3-16.
4. Lerner I.Ya. Razvitiye mыshleniya uchaщixsya v prosesse obucheniya istorii: Pos.dlya uchiteley. –M.: Prosveщyeniye, 1982. -191 st.
5. Maxmutov M.I. Problemnoye obucheniye. –M.: Pedagogika, 1975. -368 st.
6. Menchinskaya N.A. Problemы ucheniya i umstvennogo razvitiya shkolnika. –M.: 1989.
7. Mileryan Ye.A. Psixologiya formirovaniya obщyetrudovыx politexnicheskix umeniy. –M.: Pedagogika, 1973. -300 st.
8. Xamblin D. Formirovaniye uchebnыx navыkov: Per.s angl. –M.: Pedagogika, 1986. -160 st.
9. Shamova T.I. Aktivizatsiya ucheniya shkolnikov. –M.: Pedagogika, 1982. -208 st.
10. Yakimanskaya I.S. Znaniya i mыshleniya shkolnika. –M.: 1985. -80 st.
11. Bloom, B. S.; Engelhart, M. D.; Furst, E. J.; Hill, W. H.; Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain. New York: David McKay Company.